

Maxsetdinova Biybinaz Rustem qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari mutaxassisligi 1-kurs magistranti

DAVLAT FISKAL VA MONETAR SIYOSATINING VUJUDGA KELISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatning fiskal va monetar siyosatlarini qo'llash zarurati, ularning kelib chiqish sabablari va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, fiskal va monetar siyosatlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda qanday rol o'ynashi, zamonaviy iqtisodiyotda ushbu siyosatlarning dolzarbligi va ularning amaliyotga joriy etilishining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: fiskal siyosat, monetar siyosat, iqtisodiy ahamiyat, inflyatsiya, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, talab.

Махсетдинова Бийбиназ Рустем кызы

Магистрант 1-го курса специальности «Информационные технологии и системы в экономике»

Факультет экономики, Каракалпакский государственный университет

СОЗДАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИСКАЛЬНОЙ И МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация: В данной статье анализируется необходимость применения государственной фискальной и монетарной политики, причины их возникновения и значение. Также рассматривается роль фискальной и монетарной политики в обеспечении экономической стабильности, актуальность этих политик в современной экономике и особенности их реализации.

Ключевые слова: фискальная политика, монетарная политика, экономическое значение, инфляция, макроэкономические показатели, спрос.

Makshet dinova Biybinaz Rustem kizi

THE EMERGENCE OF STATE FISCAL AND MONETARY POLICY

Annotation: This article analyzes the necessity of applying state fiscal and monetary policies, their causes and significance. The role of fiscal and monetary policies in ensuring economic stability, the relevance of these policies in the modern economy, and the specific features of their implementation in practice are also considered.

Keywords: fiscal policy, monetary policy, economic significance, inflation, macroeconomic indicators, demand.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida jahon iqtisodiyotidagi murakkab vaziyatni yumshatish maqsadida "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da 2023–2025-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini ishlab chiqish, iqtisodiy o'sish darajasining o'rtacha 6,5 foizdan yuqori bo'lishini, inflyatsiyaning 2024-yildan 5 foiz target ko'rsatkichi darajasida ushlab turish; pul-kredit, budjet-soliq siyosatlari va tarkibiy islohotlarni o'zaro muvofiqlashtirish vazifasi qo'yilgan. Bu, o'z navbatida, zamonaviy xalqaro amaliy tajribada qo'llaniladigan vositalardan foydalangan holda, monetar siyosatni takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida belgilangan [1].

Adabiyotlar tajlili. Iqtisodiy faollikni ta'minlashga qaratilgan va davlat tomonidan tartibga soluvchi makroiqtisodiy siyosat tarkibiy qismi sifatida davlat fiskal va monetar siyosatlarining nazariy metodologik masalalari bir qator xorijlik taniqli iqtisodchi olimlar, jumladan, J. Keyns, M. Fridmen, L. Krasavina, S. Moiseyevlarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. J. Keyns davlat aralashuvi vazifasini mustaqil o'zgaruvchan omillarga, ular vositasida esa bandlik va milliy

daromadga ta'sir ko'rsatishdan iborat deb bilgan. Bunda hal qiluvchi shart sifatida fiskal va pul-kredit siyosati vositasida investitsiyalarni rag'batlantirishda namoyon bo'ladi, degan. Makkonell B. va Stenli Bryu S. L. esa "Fiskal siyosatning asosiy maqsadi davlat xarajatlarining ko'payishi yoki soliqlarning pasayishi, yoxud ikkalasini birga qo'shib olib borishdir. Va aksincha, agar iqtisodiyotda ortiqcha talab tufayli paydo bo'lgan inflyatsiya sodir bo'lsa, bunga to'sqinlik qiluvchi fiskal siyosat mos keladi. To'sqinlik qiluvchi fiskal siyosat quyidagilarni o'z ichiga oladi: hukumat xarajatlarining kamayishi yoki soliqlarning ko'payishi.

Agar iqtisodiyot oldida inflyatsiya ustidan nazorat qilish muammosi turadigan bo'lsa, hukumat budjetining ijobiy qoldig'iga tayanishi lozim", degan fikrni bildirgan. Yuqorida ko'rsatilgan xorij va mamlakatimiz adabiyotlarida davlat fiskal va monetar siyosatlarining iqtisodiy faollikni ta'minlashda moliyaviy salohiyatning ayrim qirralari, ahamiyati, xususiyatlari, turlari va boshqa jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan [2].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi davlat fiskal va monetar siyosatlarining shakllanish jarayonini makroiqtisodiy tahlil qilishga, ularning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan iborat bo'lib, tahlil davomida xalqaro va milliy iqtisodiy adabiyotlarda ilgari surilgan konsepsiyalardan, xususan J. Keyns, M. Fridmen, B. Bernanke, M. Malkina va mahalliy olimlarning nazariy qarashlaridan foydalanildi. Tadqiqotda soliq-budjet siyosati va pul-kredit siyosatining iqtisodiy tizimdagi o'zaro bog'liqligi, inflyatsiya, investitsiyalar, milliy valyuta barqarorligi kabi ko'rsatkichlarga ta'siri iqtisodiy-matematik tahlil tamoyillariga tayangan holda yoritildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, xususan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi" va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 Farmoni asosiy manba sifatida qo'llanilib, ulardagi fiskal va monetar siyosatlar bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarning amaliy ahamiyati baholandi. Shuningdek, tarixiy evolyutsion yondashuv asosida fiskal siyosatning davlat shakllanishi bilan bog'liq

holda rivojlanib borishi, monetar siyosatning cheklovchi va kengaytiruvchi mexanizmlarining iqtisodiy muvozanatga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, kontent-tahlil va empirik umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanilib, mavjud ilmiy qarashlar solishtirildi va fiskal hamda monetar siyosatning zamonaviy iqtisodiyotdagi identifikatsiyasi bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi. Natijada, iqtisodiy-institutsional islohotlar sharoitida fiskal va monetar siyosat o'zaro muvofiqlikda yuritilganda iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish va milliy iqtisodiyotning tashqi zarbalarga chidamliligini oshirish mumkinligi ilmiy asoslab berildi.

Taxlil va natijalar. Fiskal siyosatning iqtisodiy mazmuniga doir turli xil qarashlarni tahlil qilish, aniq iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar sharoitidagi va amal qilish xususiyatlarini hamda davlatning iqtisodiyotga samarali ta'sir qilish vositalaridan ekanligini asoslash va milliy iqtisodiyotning muvozanatligini ta'minlashdagi ustuvor yo'nalishlarini, aniq iqtisodiy tamoyillarini belgilash zarurdir. Chunki davlat paydo bo'lishi bilan fiskal siyosat jamiyatdagi turli xil iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning zaruriy tarkibiy qismlaridan biri va jamiyat rivojlanishi obyektiv ravishda taqozo qiladigan talablaridan biri bo'lib kelgan [5].

Davlat tuzilishi shakllariga va jamiyatning rivojlanishiga mos ravishda moliyaviy siyosat vositalari o'zgarib, to'xtovsiz takomillashib borgan. Inglizcha variantidan kirib kelgan "fiskal siyosat" tushunchasi mamlakatimiz va xorij iqtisodiy adabiyotlarida turlicha talqin qilinadi, ko'p hollarda "budjet - soliq", "moliya - soliq" va "moliyaviy siyosat" deb yuritiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "monetar siyosat", "monetar siyosat instrumentlari" hamda "pul-kredit siyosati konsepsiyalari" xususida ko'pchilik olimlar tomonidan fikrlar bildirilgan, jiddiy tarzda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda xulosalar shakllantirilgan. Iqtisodiy adabiyotda va xalqaro bank amaliyotida "pul-kredit siyosati" va "monetar siyosat" tushunchalarini sinonim tushunchalar sifatida talqin qilish keng tarqalgan. Masalan, taniqli iqtisodchi olim, AQSH

Prezidenti B. Bernanke o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida va ilmiy maqolalarida faqat "monetar siyosat" tushunchasidan foydalangan. M. Malkina pul-kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beradi: "Pul-kredit siyosati – Markaziy bank tomonidan pul massasi va pullar qiymatini boshqarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bo'lib, mamlakatda baholar, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi [4].

1-jadval.

Davlat fiskal va monetar siyosatlarining asosiy yo'nalishlari va ta'sir mexanizmlari

Siyosat turi	Asosiy vositalar	Maqsad	Iqtisodiy ta'siri
Fiskal siyosat	Soliqlar, budjet xarajatlari, subsidiyalar	Iqtisodiy faollikni boshqarish, daromad taqsimotini tartibga solish	Investitsiyalarni rag'batlantiradi, ishsizlikni kamaytiradi, iqtisodiy o'sishni qo'llaydi
Monetar siyosat	Foiz stavkalari, majburiy zaxiralar, ochiq bozor operatsiyalari	Inflyatsiyani nazorat qilish, pul massasini boshqarish	Pul taklifini tartibga soladi, milliy valyuta barqarorligini ta'minlaydi, likvidlikni boshqaradi

Restriksion monetar siyosat deganda, odatda, muomaladagi pul massasining o'sish sur'atlarini jilovlashga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi. Ekspansionistik monetar siyosat esa muomaladagi pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash asosida to'lovga qobil talabni rag'batlantirishga qaratilgan monetar siyosat sifatida tushuniladi. Iqtisodiy krizislar turli mamlakatlarda o'zining ko'lamiga qarab turlicha bo'lishi bilan birga mamlakatning moliya va pul-kredit tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Shunday ekan, moliya va pul-kredit tizimi va siyosatlarining takomillashib borishi mamlakat iqtisodiy hayotining muhim bo'g'ini bo'lib qoladi. Ayniqsa, iqtisodiy globallashtirish va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning o'sib borishi sharoitida pul muomalasining barqarorligini ta'minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, iqtisodiy adabiyotlarda va xalqaro bank amaliyotida Markaziy banklarning pul-kredit siyosati monetar siyosat va monetar

instrumentlar sifatida ham yuritiladi. Biroq, Markaziy bankning pul-kredit siyosati qanday tarzda yuritilishiga qaramasdan, ularning maqsadi bitta masalaga, ya'ni mamlakat milliy valyutasining barqarorligini ta'minlashga qaratiladi [3].

Xulosa va takliflar. Fiskal siyosat neoliberalizm va bozor fundamentalizmi tamoyillarining hukmronligidan xalos qiluvchi, aniq ijtimoiy yo'naltirilgan yo'nalishga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, bunda tibbiyotni rivojlantirish, uni majburiy va ixtiyoriy moliyalashtirishning sug'urta modeli samaradorligi ko'rsatkichlarining katta ta'siridan xalos qilish zarur.

Masalan, Germaniyada koronavirus pandemiyasi davrida kasalxona yotoqlarining yetarli emasligi, Italiya va Belgiyada tibbiy sug'urtaning rivojlanmaganligi, yetarli kasalxona yotoqlari va shifokorlar bilan ta'minlanganlikdagi kamchiliklar ko'zga tashlandi hamda bu mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimining optimallashtirmaganligi COVID-19 bilan kasallangan bemorlar uchun halokatli oqibatlariga olib keldi.

Germaniyaga davolanish uchun poyezd va samolyotlarda evakuatsiya qilinganlar ham kuzatilgan. 2020 yilda, 140 yil oldingi Bismark yondashuviga ko'ra ishchilarni ijtimoiy sug'urtalash amaliyoti kasallik davrida ijobiy natijalar berdi. Sog'liqni saqlash tizimidagi inqirozli jarayonlarni yumshatish maqsadida davlat va xususiy biznes vakillariga kvazi-soliq tarzidagi ijtimoiy majburiyatlarni yuklash bilan moliyalashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сунатуллаева III.X. Provided financial recovery and increased attractiveness of territorial investment. Journal of Management Value and Ethics, March, 2024.

2. Сунатуллаева III.X. Ўзбекистонда ҳудудлар инвестицион фаоллигини ошириш йўналишлари. О'zbekiston Milliy axborot agentligi О'zA Ilm-fan bo'limi Elektron jurnal, 2024 йил февраль сони N2 (52), 58-63 бет.

3. Сунатуллаева Ш.Х. Худудлар молиявий барқарорлигини таъминлашда инвестиция жозибадорлигини оширишнинг назарий жиҳатлари. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*, 2023 йил, 10-сон, 1135-1140 бет.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>

5. Омонов А.А., Қоралиев Т.М. “Пул-кредит ва банклар”. Дарслик. Тошкент: Ўзбекистон, 2012